

BOLALARDA SPASTIK DIPLEGIYA (LITTLE SINDROMI)

Zoirova Gavxar Xusanboyevna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika (Logopediya) mutaxassisligi 1-kurs magistri*

Annotatsiya. *Maqolada, spastik diplegiya tushunchasi, uning etiologiyasi, klinik xususiyatlari, rivojlanish tarixi va turli shakllari ilmiy tarzda tahlil qilinadi. Spastik diplegiya tug'ma neyrologik nuqson sifatida ko'rib chiqiladi, ammo tibbiy va reabilitatsion yondashuvlarni talab qiladi. Shuningdek, kasallikning oldini olish choralari, davolash va korreksion ishlar, shu jumladan pediatrik reabilitatsiya va logopediya yondashuvlari batafsil ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *bolalar serebral falaji, spastik diplegiya, Little sindromi, etiologiya, profilaktika, apraksiya, dizartriya, tizza refleksi, perinatal omillar, natal, postnatal omillar, korreksion ishlar.*

Аннотация. *В статье научно анализируются понятие спастической диплегии, её этиология, клинические особенности, история развития и различные формы. Спастическая диплегия рассматривается как врождённый неврологический дефект, однако она требует медицинских и реабилитационных подходов. Также подробно рассматриваются меры профилактики заболевания, методы лечения и коррекционной работы, включая педиатрическую реабилитацию и логопедические подходы.*

Ключевые слова: *детский церебральный паралич, спастическая диплегия, синдром Литтла, этиология, профилактика, апраксия, дизартрия, коленный рефлекс, перинатальные факторы, натальные факторы, постнатальные факторы, коррекционная работа.*

Abstract. *The article provides a scientific analysis of the concept of spastic diplegia, its etiology, clinical features, developmental history, and various forms. Spastic diplegia is considered a congenital neurological disorder; however, it requires medical and rehabilitation approaches. The paper also discusses preventive measures, treatment methods, and corrective interventions, including pediatric rehabilitation and speech therapy approaches.*

Keywords: *cerebral palsy in children, spastic diplegia, Little syndrome, etiology, prevention, apraxia, dysarthria, knee reflex, perinatal factors, natal factors, postnatal factors, corrective work.*

Bolalarda serebral falajlik (BSF) turli klinik shakllarda uchraydi, shular ichida spastik diplegiya (Little sindromi) eng keng tarqalgan kasallik bo'lib, u XIX asrning o'rtalarida ingliz xirurgi John Little tomonidan aniqlangan. John Little bolalarda spastik falajlikni aniqlab, uni

jarrohlik yo'li bilan korreksiya qilishga harakat qilgan [1]. Little o'z ishlarida "serebral falajlik" va "spastik diplegiya" atamalarini birinchi marta ilmiy adabiyotlarda keltirgan. Keyinchalik mutaxassislar bolalarda turli darajadagi va harakatlarsiz falajliklarni umumiy nom bilan "bolalar serebral falajligi" deb atashni boshlashgan, spastik diplegiya esa Little kasalligi nomi bilan mashhur bo'lgan [2].

Spastik diplegiya ko'pincha perinatal travma, erta tug'ruq, rivojlanishning dastlabki davrida turli xil salbiy omillarga duch kelgan bolalarda aniqlanadi. Kasallik bola hayotining birinchi yilida, ko'pincha chaqaloqlik davrining 6 oyigacha kuzatiladi va giperkinetik sindrom bilan birlashtiriladi [3]. Shu bilan birga, spastik diplegiya bolalarda motorik, kognitiv va nutq rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Spastik diplegiyaning paydo bo'lishiga turli omillar sabab bo'ladi, ularni prenatal, natal va postnatal davrlarga ajratish mumkin:

Prenatal omillar:

- onaning homiladorlik davrida turli infeksiyalar (toksoplazmoz, qizamiq, rubella) va surunkali kasalliklar (og'ir anemiya, endokrinopatiyalar)[4];
- zararli odatlar (chekish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik);
- embriotoksik farmakologik vositalarni iste'mol qilish;
- nasliy omillar, jumladan qarindoshlar nikohi;
- ona-bola rezus omilining nomuvofiqligi.

Natal omillar

- tug'ruq vaqtida bosh miya jarohatlari;
- serebral ishemiya va gipoksiya;
- muddatidan ilgari tug'ilish va past tana vazni.

Postnatal omillar:

- bosh miya jarohatlari (gematomalar, travmalar);
- meningoensefalitlar (qizamiq, qizilcha) [5].

Spastik diplegiya ikki oyoqda mushak tonusi va motorik funksiyalarning buzilishi bilan namoyon bo'lib, bolaning harakat imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Spastik diplegiya ikki oyoqda spastik falajlik bilan namoyon bo'ladi.

Xalq tilida bu holat "ikkala oyog'i shol bola" deb ataladi. Mushak tonusi va reflekslar:

- sonni oldinga bukuvchi, boldirni yozuvchi va oyoq panjasini pastga bukuvchi mushaklarda spastik gipertonus;
- tizza refleksi keskin oshgan, aksill refleksi esa, pasaygan bo'lishi mumkin;
- bola yurganda oyoqlar ichkariga tortiladi, tovonlari yerga tegmaydi va oyoq uchi bilan yurishga harakat qiladi.

Qo'llar, hamda motorika:

- qo'llarda spastik falajlik ba'zan yengil ifodalangan bo'ladi;
- apraksiya belgilari: bola qoshiq, piyola yoki tugmalarni mustaqil ushlay olmaydi;
- agar apraksiya og'zaki va mimik muskullarda ham kuzatilsa, chaynash va yutish qiyin kechadi;
- dizartriya aniqlanadi.

Mushak-bo'g'im kontrakturalari:

- oyoqlarda kontrakturalar rivojlanadi;
- umurtqa pog'onasida kifoza va kifoskolioz kuzatiladi;
- ko'krak qafasi shakli o'zgaradi [6].

Ruhiy va kognitiv rivojlanish:

- ba'zi bolalarda ruhiy va aqliy rivojlanishdan orqada qolish kuzatiladi;
- pseudobulbar falajlik, kranial nevropatiyalar, dislaliya aniqlanishi mumkin;
- doimiy parvarish talab qilinadi.

Spastik diplegiyada korreksiya ishlar kompleks ravishda amalga oshiriladi. Mutaxassislar jamoasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: pediatr, travmatolog, fizioterapevt, psixolog, logoped, oftalmolog va otorinolaringolog.

Davolash-reabilitatsiya ishlari quyidagi jarayonlarga qaratiladi:

- mushak tonusini normallashtirish va kontrakturalarni oldini olish;
- mustaqil o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish;
- nutq va kognitiv rivojlanishni yaxshilash;
- ijtimoiy moslashuvni oshirish [7].

Katta yoshdagi bolalar ixtisoslashtirilgan maktablardagi pedagoglar tomonidan o'qitiladi, logopediya va psixologik mashg'ulotlar orqali nutq va ruhiy rivojlanish qo'llab-quvvatlanadi. Spastik diplegiya tug'ma nevrologik nuqson sifatida qaraladi, chunki u miya rivojlanishidagi patologiya natijasida paydo bo'ladi. Shu bilan birga, tibbiy kontekstda bu kasallik sifatida davolash va reabilitatsiya talab qiladi.

- Defektologik nuqtai nazardan: spastik diplegiya, harakat va motorik nuqson;
- Tibbiy nuqtai nazardan: spastik diplegiya, tibbiy aralashuvni talab qiluvchi kasallik.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, spastik diplegiya, bolalar serebral falajining eng ko'p uchraydigan turi bo'lib, doimiy nazorat va kompleks davolashni talab qiladi. Ota-onalar va shifokorlar hamkorligida parvarish va terapevtik mashg'ulotlar olib boriladi. Ruhiy buzilishlar va oligofreniya holatlarida psixolog va defektologning ishtiroki zarur. Davolash va reabilitatsiya ishlarining kompleks yondashuvi bolaning motorik, nutq va kognitiv rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Rahmanova V.S., Nurkeldiyeva D.A. Alohida yordamga muhtoj bolalar reabilitatsiyasi. Tashkent: Navro'z, 2014.
- 2.Rahmanova V.S. Defektologiya asoslari. Tashkent: Voris-Nashriyot, 2012.
- 3.Camacho-Salas, A. et al. Cerebral Palsy: Concept and Population-Based Records. Rev Neurol, 45(8), 503–508, 2007.
- 4.Pravdina O.V. Logopediya. Moscow: Prosveshcheniye, 1989.
- 5.Volkova.I.S Moscow: Prosveshcheniye, Logopediya / ed. 1989.